



THE POLITICAL IMPORTANCE OF NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

Jiengaliy Usenov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)
Nukus State Pedagogical Institute

Dilfuza Bekimbetova

Senior Lecturer
Nukus State Pedagogical Institute
Nukus, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: civil society, non-governmental organizations, social activity, democratic values, civil society institutions.

Received: 19.06.25

Accepted: 21.06.25

Published: 23.06.25

Abstract: This article examines the role of non-governmental organizations (NGOs) in the formation and development of civil society. It highlights the significance of NGOs in enhancing social activity, strengthening democratic values, and protecting the rights and interests of citizens. By analyzing both international and local practices, the research proposes recommendations for expanding cooperation between NGOs and civil society institutions.

FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NODAVLAT TASHKILOTLARINING SIYOSIY AHAMIYATI

Jiengaliy Usenov

dotsenti falsafa doktori (PhD)
Nukus davlat pedagogika instituti

Dilfuza Bekimbetova

katta o‘qituvchi
Nukus davlat pedagogika instituti
Nukus, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyat, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy faollik, demokratik qadriyatlar, fuqarolik institutlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlanirishda nodavlat tashkilotlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda nodavlat tashkilotlarning jamiyatdagi ijtimoiy faollikni oshirish,

demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, aholi huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi muhim roli yoritilgan. Tadqiqotda xorijiy tajriba hamda mahalliy amaliyot o‘rganilib, nodavlat tashkilotlarning fuqarolik jamiyatni institutlari bilan hamkorligini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

ПОЛИТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Жиенгалий Усенов

доцент, доктор философии (PhD)

Нукусский государственный педагогический институт

Дилфузা Бекимбетова

старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт

Нукус, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гражданское общество, негосударственные организаций, социальная активность, демократические ценности, институты гражданского общества.

Аннотация: В статье анализируется роль негосударственных организаций в формировании и развитии гражданского общества. Подчёркивается их значимость в повышении социальной активности общества, укреплении демократических ценностей и защите прав и интересов населения. Рассмотрен зарубежный и национальный опыт, предложены рекомендации по расширению сотрудничества негосударственных организаций с институтами гражданского общества.

Fuqarolik jamiyatni institutlari jamoatchilik fikrini ifodalaydi, jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Jamoatchilik nazoratining mavjudligi demokratik davlat belgisi sanaladi. Bir tomonidan, jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarni davlat organlari, mansabdar shaxslarning noqonuniy xattiharakatlaridan himoya qilish mexanizmi vazifasini o‘taydi.

Jamoatchilik nazorati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish (har bir fuqaro davlat idorasining hujjati bilan bemalol tanishishi mumkin, fuqarolarning murojaatlari darhol ko‘rib chiqilishi va ularga zudlik bilan javob berilishi lozim);
- davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yuboriladigan pettsiyalar;
- davlat va jamiyat ishlarida fuqarolarning bevosita qatnashishi (asosan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi);

- davlat siyosatiga ta'sir o'tkazuvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, ilmiy ekspertizani amalga oshirish, tahliliy hujjatlar tayyorlash, publitsistik asarlar chop etish, ijtimoiy audit);
- jurnalistik tekshiruv;
- qonun loyihalari va davlat hayotiga oid muhim masalalarni oshkora muhokama qilish;
- qonunchilik tashabbusi bilan chiqish (unga ko'ra fuqarolar qonun loyihasini tegishli sub'ektlarga tavsiya etish huquqiga ega) [4, 369].

Jamoatchilik nazorati jamiyatdagi illatlarni bartaraf etishda muhim o'rinni tutadi, mavjud huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali xizmat qiladi. Jamoatchilik nazoratida faoliyatning samaradorligi va natijasi, shuningdek, amalga oshirilgan nazorat amaliyotining ta'sirchanligi muhim o'rinni tutadi. Bu jihatdan, jamoatchilik nazorati jamiyatda mavjud muammolar va o'z yechimini kutayotgan ziddiyatlar haqida ob'ektiv ma'lumot olish hamda ularning maqbul yechimini topishga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, jamtaochilik nazoratining samaradorligini oshirishda ommaviy axborot vositalari muhim o'rinni tutadi.

O'zbekistonda nodavlat tashkilotlarga doir qonunchilik rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xalqaro huquqiy me'yorlar va milliy an'analar asosida shakllantirilgan bo'lib, u o'zida demokratik prinsiplar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Mamlakatda davlat bosh islohotchi sifatida nodavlat tashkilotlarning qonunchilik asoslarini har tomonlama rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqda. Parlamentda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir yuzlab qonunlar va boshqa huquqiy me'yorlar qabul qilingan bo'lib, ularning ichida O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni (1999 yil 14 aprel) nodavlat notijorat tashkilotlarning serqirra faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va huquqiy jihatlardan ta'minlashga qaratildi.

Qonunning 1-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti tuzishning umumiy maqsadi ijtimoiy foydali manfaatlarning qondirilishi ekanligi e'tirof etilib, bu bilan nodavlat tashkiloti o'z faoliyatida xalqchillik prinsipiga amal qilishi shart ekanligi belgilab qo'yildi[5,15].

Mazkur Qonunning 2-moddasida «Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi»ning ta'rifidagi demokratik qadriyatlar asosida talqin qilinadi: «Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi»[6,14].

Ushbu qonunda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan davlatning hamkorligi shunday o‘z ifodasini topganki, davlat organi, ya’ni parlament qonun qabul qiladi, bu qonunga binoan «uchinchi sektor» a’zolari va jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi. Qonunda qayd etilgan ijtimoiy foydali maqsad tushunchasi nodavlat tashkilotlar faoliyatini aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltiradi. Davlat organlarining muhim funksiyalaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilish ekanligini e’tiborga olsak, bu sohada davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi uchun huquqiy asoslarning yaratilganligi namoyon bo‘ladi.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi qonunga binoan nodavlat notijorat tashkilotlarining maqsadlari quyidagi yo‘nalishlardagi faoliyatlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

-birinchidan, keng ma’nodagi madaniy maqsadlarga erishish ko‘zlab tuzilgan. Bunda maorif, ilm-fan, madaniyat sohalarida faoliyat olib boriladi;

-ikkinchidan, mamlakat aholisining sihat-salomatligini ta’minalashni ko‘zlab faoliyat yuritish (sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchi, turli xil xastaliklarning oldini olish va ularni davolashning ilg‘or tajriba ham usullarini targ‘ib etuvchi tashkilotlar);

-uchinchidan, turlicha faoliyat yo‘nalishidagi huquqni muhofazalovchi tashkilotlar (masalan, iste’molchilar huquqini himoyalash jamiyati);

-to‘rtinchidan, fuqarolarning ma’naviy va boshqa xildagi nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkilotlar (nosiyosiy uyushmalar, ijtimoiy jamg‘armalar va boshqalar);

-beshinchidan, xayr-ehson ishlari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar[7,16].

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘zaro munosabatlari va hamkorligi ushbu Qonunning 4-moddasida quyidagicha ta’riflanadi: «Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariiga rioya etilishini ta’minalaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko‘mak ko‘rsatishi mumkin.

Qonunning mazkur 4-moddasi nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat organlari bilan o‘zaro munosabati asoslarini belgilab beradi. Davlat, bir tomonidan, qonuniy asosda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarni mustahkamlaydi, ikkinchi tomonidan, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqi va qonuniy manfaatlarni huquqiy jihatdan himoya qilish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlari amalga oshishini kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratadi, barcha davlat organlari va mansabdar shaxslarning zimmasiga qonun talablarini so‘zsiz ijro etish vazifasini yuklaydi, zarur holatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarni har xil tajovuzlardan himoyalaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarni himoya etilishini mavjud barcha huquqiy usullar bilan muhofazalashga haqlidir.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga va uning doimo taraqqiy etib borishiga juda katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi insonning munosib hayot kechirishini, barcha hayotiy orzu-maqsadlari shu jamiyatdagi siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institut, guruh, oila va boshqa jamoat birlashmaliari orqali amalga oshirilishini ta'minlashdir.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar qilingan va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyat yuritishi uchun qonunchilik asoslarining yaratilishi mazkur sohaga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular jumlasiga "Jamoat birlashmaliari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Shuningdek, mamlakatimizdada nodavlat notijorat tashkilotlari son jahatdan ham o'sib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mayjud hamda 30 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda[8,24].

NNTlar mamlakat fuqarolarining moddiy va ma'naviy farovonligini oshirishda bevosita va bilvosita ta'sir qila oladigan tashkiliy tuzilmalardir. Mazkur tashkilotlar muayyan hudud aholisi va umuman jamiyatga turli masalalarda ko'mak beradi. Jumladan, mintaqaviy, mahalliy chegaralarda muhim muammolarni hal etish, aholi turmush darajasini yaxshilash, profilaktik ishlarda ishtirok etishdan tortib institutsional miqyosdagi faoliyatlarda ishtirok etadi. NNTlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga bilvosita ta'sir ko'rsatishda qabul qilingan huquqiy me'yorlar doirasida turli mexanizmlarni qo'llaydi, davlat organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi, jamoatchilik eksperti sifatida faoliyat yuritadi.

Mamlakatda jamoat birlashmaliari tizining qaror topishi fuqarolik jamiyatni uchun xos bo'lgan inson huquqlari va erkinligini amalda ta'minlash jarayoni bilan hamohang ravishda kechmoqda. Milliy mustaqillik va mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan tub islohotlar natijasi o'laroq, mamlakatda qisqa davr ichida fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat barpo etishning muhim talablaridan biri - demokratik jamiyatga xos bo'lgan jamoat birlashmaliari tizimlari qaror topdi.

NNT jamiyat a'zolarining demokratik asosda birlashgan uyushmaliari bo'lib, ular o'z a'zolarining siyosiy, ijtimoiy va ijodiy manfaatlarini ifoda etadi, fuqarolar faolligini oshirishda muhim o'rinn tutadi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan NNT tizimidagi yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari, kasaba uyushmaliari ijtimoiy adolatni ro'yobga chiqarish, demokratik tamoyillarni rivojlantirish, umumbashariy muammolarni hal etish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, tinchlik va

osoyishtalikni ta'minlash kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga ko'maklashmoqda, aholi sog'ligini muhofaza qilish, ekologik va boshqa dolzarb masalalarni hal etish ular faoliyatining o'zagini tashkil etmoqda.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyat sharoitida NNTning faoliyati kuchayib boradi, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarda ularning faoliyati yanada kengayadi. NNT davlat hokimiyati tomonidan qabul qilinadigan dasturlar va qararlarni muhokama qilishda, davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi. Ular o'z vakillarini saylovlar komissiyalari tarkibiga kiritadi, o'z nomzodlarini deputatlikka yoki fuqarolar yig'inlari oqosoqolligiga (raisligiga) qo'ygan shaxslarga o'z munosabatlarini bildiradi. NNT jamiyatda kechayotgan siyosiy jarayonlarga befarq bo'lmaydi. Ularning a'zolari saylovlarda faol qatnashishlari bilan o'zlarining siyosiy jarayonlarda namoyon etadilar.

Fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish ularning siyosiy madaniyatini shakllantirishning asosiy komponenti ekanligiga e'tibor bersak, fuqarolarni ijtimoiylashtirish va siyosiy madaniyatini oshirishda siyosiy partiyalar asosiy o'rinda turadilar. Shuningdek, siyosiy partiyalar o'rtasidagi o'zaro muholifiy munosabatlar jarayonida fuqarolar o'zlarining siyosiy faolligini oshirishga zarurat sezsa boshlaydilar.

Mamlakatimizdagи siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy omili sifatidagi o'rni va rolini quyidagilar asosida ko'rsatish mumkin:

-vakillik organlari va ijroiya hokimiyatiga ko'rsatilayotgan nomzodlar yuqori davlat organlari tomonidan emas, balki partiya a'zolari va ularning organlari tomonidan ko'rsatiladi; bu jarayonda oddiy fuqarolardan iborat partiya a'zolarining tashabbuslari e'tiborga olinishi, ularda mas'uliyatning paydo bo'lganligi ularni faollashtirish omili hisoblanadi;

-siyosiy partiyalar fuqarolar va ijtimoiy qatlamlar siyosiy manfaatlarini ifodalashlari tufayli fuqarolar unga a'zo bo'lib, partiya yordamida o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga imkoniyat topadilar; fuqarolar o'zları yolg'iz o'z siyosiy manfaatlarini va irodalarini ifodalay olmasligi tufayli partiyaga a'zo bo'lib kiradi

yoki unga xayrixoh fuqaroga aylanadi; bu jarayonda fuqarolar siyosiy jihatdan faollashadi;

-fuqarolar siyosiy partiyalar tarafdrorlari sifatida saylovlarda o'zları moyil bo'lgan vakillik organlariga saylanadigan deputatlar nomzodlariga ovoz berishda ishtirok etadi; turli partiyalar tomonidan turli nomzodlarni ilgari surilishi natijasida fuqarolarda nomzodlardan birini tanlash va ularni ko'proq ovoz olishiga xayrixohlik istaklari shakllanadi; bu ularning mazkur jarayonga befarq emasligini, balki ularning siyosiy faollashganligini anglatadi;

-ko'ppartiyaviylik tizimi sharoitida fuqarolar boshlang'ich partiya tashkilotlari faoliyatida bevosita ishtirok etadilar, yoki mehnat jamoasida u yoki bu siyosiy partiya ta'siriga beriladi; bu holat ularni siyosiy faollashuviga ta'sir ko'rsatadi;

-fuqarolar siyosiy partiyalar faoliyatida yoki ular muvofiqlashtirayotgan saylov kampaniyalarida ishtirok etadilar; bu jarayon fuqarolarni ma'lum darajada ijtimoiylashuv darajasini oshiradi; boshqacha aytganda fuqarolar siyosiy jihatdan ma'lum darajada faollashadi;

- siyosat nafaqat davlat tashkilotlari yoki siyosiy partiyalar, balki ayrim olingan bir shaxs bilan ham “shug‘ullanadi”, yoki boshqacha aytganda har bir shaxs siyosat bilan shug‘ullanadi. Chunki, Aristotel ta'biri bilan aytganda, “inson o‘z tabiatiga binoan siyosiy mavjudotdir”[9,378].

1991 yil 14 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatda ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy jihatlarini ta‘minlab berishi natijasida mamlakatda yangi siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari boshlandi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimini qaror topishida 1996 yil 25 dekabrida Oliy Majlis qabul qilgan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun muhim o‘rin tutdi. Qonun 17 ta moddadan iborat bo‘lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun rivojlangan mamlakatlar mezonlari talablariga xos bo‘lgan huquqiy asoslar yaratildi. Qonunning 5-moddasiga binoan, “davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishiini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o‘z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi” [10,12]. Shuningdek, siyosiy hayotda birinchi marta qonunning 12-moddasida siyosiy partiyalarning huquqlari aniq va ravshan ko‘rsatib berildi: “Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

- o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni erkin tarqatish, o‘z g‘oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ‘ib qilish;

- saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

- qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

- partiya faoliyati bilan bog‘liq yig‘ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;

- qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta’sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- O‘zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnomaga munosabatlari o‘rnatish” [11,15].

Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri, bu - siyosiy institatlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, shuningdek, huquqiy davlat fuqarolari - plyuralistik fikrlashga qobil bo‘lgan shaxslarni shakllantirishdir.

2007 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan ”Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi mamlakatda fuqarolik

jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlab, siyosiy partiyalar demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritishlari uchun imkoniyatlar yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O‘zbekiston ekologik partiyasi faoliyat yuritmoqda.

Shu tariqa, mamlakatda mustaqillik yillarda siyosiy partiyalarning davlat hokimiysi organlaridan mustaqil ravishda rivojlanishi va keng faoliyat ko‘rsatishi uchun ijtimoiy-siyosiy kengliklar yaratildi. Shu bilan birga, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi “hududiy, bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan bir yuz ellik deputatlardan iborat” bo‘lishi bu qoidani O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi Qonunda mustahkamlab qo‘yilishi siyosiy partiyalarning mamlakat qonun chiqaruvchi hokimiyatini shakllantirishdagi rolini yanada oshirdi.

Mamlakatda milliy mustaqillikning ilk davrida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasi o‘laroq, fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo‘lgan siyosiy partiyalarning demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishning asosiy omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z o‘rnida, fuqarolar faolligining yuksalishi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash omili sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, o‘zining siyosiy manfaatlari va ehtiroslarini siyosiy partiyalar vositasida qondirgan fuqarolar endi siyosiy hokimiyat organlariga nisbatan e’tirozlari va ular faoliyatidan qoniqmasliklaridan voz kechadilar, shu tariqa, hokimiyat organlari va jamiyat o‘rtasida o‘ziga hos umummanfaatlar va umummaqsadlar shakllanib, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik turg‘un bir holatga aylanadi.

O‘zbekistonda davlatning bosh islohotchilik faoliyati natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarning demokratik tamoyillar asosidagi huquqiy asoslari shakllandi. Qisqa davr ichida mamlakatda fuqarolik jamiyat qurishning poydevori - konstitutsiyaviy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Islohotlar natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi shakllandi. Muhibi, «uchinchı sektor» bilan davlat hamkorligi natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

XXI asr boshlariga kelib O‘zbekiston davlati va xalqi ilg‘or rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarga erkinlik bag‘ishlagan, shaxsning erkin kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratgan, jamiyatning hamma jabhalarini demokratiyalashtirishga qobil bo‘lgan, o‘zida xalqchil

milliy meros va an'analarni ifodalagan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi islohotlarning yangi bosqichini chuqurlashtirishga kirishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Каримов И.А.. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т., “Ўзбекистон”, 2010 .-Б.42
2. Ташанов А. Бошқарув ислоҳотлари ва раҳбар компанентлиги. Тошкент “Маънавият”, 2011. 28-б.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғ‘рисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонунлари. 4-сон. -Т.: Адолат, 1993.-Б.155.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат нокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғ‘рисида”ги қонуни. 5 май 2014 й// http://senat.gov.uz/uz/laws/urq-369_05.05.2014.html.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғ‘рисида»ги Қонуни// «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғ‘рисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига шарҳлар.-Т.:Адолат, 2001.-Б.15.
6. Ўша жойда.-Б.14-16.
7. Эргашева Д. Фуқаролик жамияти такомиллаштиришда нодавлат нотижорат ташкилотларининг ўрни. <http://hudud24.uz/fukarolik-jamiyati-takomillashtirishda-nodavlat-notijorat-tashkilotlarining-orni/>
8. Аристотел. Политика // Соч.В 4-т.Т.4.-М.:Мысл, 1984. с.378
9. Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партиялар тўғ‘рисида”ги Қонуни. //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, № 2 (1250), 1997.-Б.12. Ўша жойда.–Б.15.